



**TRANSPORT LAW AS AN INDEPENDENT BRANCH OF
LAW: THEORETICAL FOUNDATIONS, COMPARATIVE
ANALYSIS, AND ISSUES OF IMPROVING UZBEKISTAN'S
LEGISLATION**

Yuldashev Djaxongir Xayitovich

Tashkent State Transport University

Professor of the Department, Doctor of Juridical Sciences (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18681393>

ARTICLE INFO

Received: 10th February 2026

Accepted: 17th February 2026

Online: 18th February 2026

KEYWORDS

Transport law, transport infrastructure, unified transport system, imperative method, dispositive method, transport safety, licensing, Uzbekistan, international transit, legal regulation.

ABSTRACT

The article scientifically elucidates the formation of transport law in Uzbekistan as an independent branch, its subject matter, methods, and legal characteristics. It is emphasized that transport law is a complex branch encompassing civil, administrative, international, and financial relations, regulated through both imperative and dispositive methods, as well as legal compliance and integration within a unified transport system. The article is dedicated to the development of transport legislation in Uzbekistan and its scientific and practical significance as an independent legal branch.

**TRANSPORT HUQUQI MUSTAQIL HUQUQ TARMOQI SIFATIDA:
NAZARIY ASOSLAR, QIYOSIY TAHLIL VA O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Yuldashev Djaxongir Xayitovich

Toshkent Davlat Transport Universiteti

kafedra professori, yuridik fanlar doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18681393>

ARTICLE INFO

Received: 10th February 2026

Accepted: 17th February 2026

Online: 18th February 2026

KEYWORDS

Transport huquqi, transport infratuzilmasi, yagona transport tizimi, imperativ usul, dispozitiv usul, transport xavfsizligi, litsenziyalash, O'zbekiston, xalqaro tranzit, huquqiy tartibga solish.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekistonda transport huquqining mustaqil tarmoq sifatida shakllanishi, uning predmeti, usullari va huquqiy xususiyatlari ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Transport huquqining fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va xalqaro hamda moliyaviy munosabatlarni o'z ichiga olgan kompleks tarmoq ekanligi, uning imperativ va dispozitiv usullari orqali tartibga solinishi hamda yagona transport tizimi doirasida huquqiy muvofiqlik va integratsiyasi ta'kidlangan. Maqola O'zbekistondagi transport qonunchiligining rivojlanishi va uning mustaqil huquqiy tarmoq sifatidagi ilmiy va amaliy ahamiyatiga bag'ishlangan.



Hozirgi globalashuv sharoitida transport sohasi davlat iqtisodiyoti, milliy xavfsizlik va xalqaro hamkorlikning strategik tarmog'i hisoblanadi. Transport infratuzilmasining barqaror faoliyati mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish, ichki bozorni birlashtirish hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois O'zbekistonda so'nggi yillarda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tranzit salohiyatni oshirish va logistika tizimini raqamlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyalari¹ transport munosabatlarini kompleks va tizimli huquqiy tartibga solishni taqozo etmoqda.

Transport huquqi ilmiy adabiyotlarda nisbatan kamroq uchraydigan huquqiy kategoriya hisoblanadi. Dastlab transport huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq va xalqaro huquq normalari orqali tartibga solib kelingan². Industrial rivojlanish, temir yo'l, avtomobil, havo va dengiz transportining jadal taraqqiyoti transport sohasida o'ziga xos, kompleks huquqiy munosabatlarni vujudga keltirdi. Shu bois, bugungi kunda transport

munosabatlarini alohida tizim sifatida o'rganish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Transport huquqining mustaqil tarmoq sifatidagi o'rni haqida olimlar turli qarashlarga ega. Ayrim hollarda u fuqarolik huquqining tarkibiy qismi (tashish shartnomalari) yoki ma'muriy huquq (davlat boshqaruvi, litsenziyalash) predmeti deb hisoblanadi. Biroq zamonaviy huquqshunoslikda transport huquqi mustaqil tarmoq sifatida tan olinadi, chunki u o'ziga xos predmet va usulga ega.

Transport huquqining **predmeti** murakkab va ko'p qirrali bo'lib, transport sohasidagi ijtimoiy munosabatlar — yo'lovchilar, bagaj va yuklar tashish, transport vositalaridan foydalanish, yo'l harakati xavfsizligi, transport infratuzilmasini boshqarish va davlat nazoratini, ya'ni bir vaqtning o'zida fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va moliyaviy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Tahlillar transport huquqining predmetini quyidagi munosabatlar tashkil etishini ko'rsatmoqda:

- yuk va yo'lovchilarni tashish munosabatlari;
- transport infratuzilmasini boshqarish;
- xavfsizlik va ekologik talablar;
- xalqaro transport aloqalari;
- litsenziyalash va nazorat munosabatlari;
- transportda ma'muriy va mulkiy javobgarlik masalalari.

¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 27, 2025 No. PQ-28 "On Measures to Further Develop the Transport-Logistics System of the Republic of Uzbekistan" //

<https://lex.uz/en/docs/7342148> (accessed: 14 February 2026).

² Транспортное право. Общая часть: Учебник / отв. ред. Н.А.Духно, А.И.Землин. — М. : Юридический институт МИИТа, 2017. — 259 с.



Transport huquqi kompleks tarmoq bo'lganligi sababli uning metodi (usuli) ham aralash xususiyatga ega hisoblanadi. Ushbu huquq tarmog'i asosan imperativ (majburiy) va dispozitiv (ixtiyoriy) usullarni qo'llaydi.

Imperativ usulda davlat hokimiyati tomonidan qat'iy qoidalar belgilanadi va taraflar ulardan chetga chiqish huquqiga ega emas. Bu usul, ayniqsa, transport xavfsizligi va litsenziyalash sohasida ustuvordir. Mazkur usul transport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya va ruxsat berish tartiblari, harakat xavfsizligi qoidalari, sanitariya, texnik va ekologik talablar kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Dispozitiv (ixtiyoriy-shartnomaviy) usulda esa, taraflar teng huquqli bo'lib, ular o'zaro kelishuv asosida munosabatlarni belgilaydi. Masalan, ushbu usul yuk tashish va yo'lovchi tashish shartnomalari, ekspeditorlik hamda logistika xizmatlari sohaslarida keng qo'llaniladi.

Qayd etish lozimki, mazkur ikki usul (metod) uyg'unligi transport huquqining mustaqil tarmoq sifatidagi xususiyatini belgilaydi.

Yuridik manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, transport huquqining o'ziga xos xususiyatlari (belgilari) quyidagilardan iborat:

1) huquqiy rejim sifatida davlat majburlonining alohida turi bo'lib, xavfsizlik va tartibni ta'minlaydi;

2) transport vositalari va infratuzilmaning texnik xususiyatlariga bog'liq huquqiy cheklavlarni o'rnatadi va bekor qiladi;

3) xalqaro standartlar hamda huquq normalari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi;

4) sud va ma'muriy organlar (Transport vazirligi, IIV YHXX, litsenziyalash organlari) tomonidan qo'llaniladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda transport sohasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni transport huquqining ilmiy asoslarini rivojlantirishga turtki berdi. O'zbekiston Respublikasida yagona transport tizimining shakllanishi va transport qonunchiligining tizimli ravishda takomillashib borishi transport huquqining mustaqil huquqiy yo'nalish sifatida vujudga kelishini objektiv ravishda shartlamoqda. Bu jarayon, avvalo, davlatning transport sohasida kompleks siyosat yuritishi, infratuzilmani integratsiyalash va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yangilash bilan bog'liq.

O'zbekistondagi **yagona transport tizimi** turli transport turlarini (temir yo'l, avtomobil, havo, ichki suv va shahar transporti) yagona iqtisodiy va tashkiliy makonda faoliyat yuritishini anglatadi. Masalan, temir yo'l sohasida "O'zbekiston temir yo'llari", havo transportida "Uzbekistan Airways", avtomobil yo'llari infratuzilmasini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyati o'zaro bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Bu esa, transport munosabatlarni alohida-alohida emas, balki yagona tizim doirasida huquqiy tartibga solish zaruratini keltirib chiqaradi.

Transport sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining



“Avtomobil transporti to‘g‘risida”³, “Transport to‘g‘risida”⁴, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”⁵, “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”⁶ Qonunlari transport faoliyatining umumiy tamoyillari, davlat boshqaruvi mexanizmlari, xavfsizlik talablari va ishtirokchilarning huquq hamda majburiyatlarini belgilab berdi. Mazkur qonun hujjatlari transport sohasini tarmoqlararo huquqiy institut sifatida shakllantirishga asos yaratdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida tashish shartnomasiga oid normalar, ma‘muriy qonunchilikda litsenziyalash va nazorat tartiblari, jinoyat qonunchiligida transport xavfsizligiga oid javobgarlik choralarini nazarda tutilgani transport munosabatlarining kompleks tabiatini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bu normalar **alohida manbalarda tarqalganligi** sohani o‘rganish, amaliyotga tatbiq etish va nazorat qilishni murakkablashtiradi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Transport kodeksining qabul qilinishi barcha normativ-huquqiy qoidalarni **bir tizimli hujjatga birlashtiradi**, bu esa:

qonunchilikni oson tushunish va tatbiq qilish imkonini beradi;

qarama-qarshi yoki takroriy normalarni bartaraf etadi;

transport faoliyatini tartibga soluvchi yagona huquqiy asos yaratadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, huquq tarmog‘ining shakllanishi uchun uchta asosiy omil muhim:

1) mustaqil huquqiy tartibga solish predmetining mavjudligi;

2) o‘ziga xos huquqiy usullar tizimining mavjudligi;

3) normalarning ichki birligi va tizimlili.

O‘zbekistonda transport sohasida aynan shu belgilar shakllanmoqda. Birinchidan, transport faoliyatiga oid munosabatlar (tashish, logistika, infratuzilmadan foydalanish, xavfsizlikni ta‘minlash) alohida va barqaror huquqiy tartibga solish predmetini tashkil etadi. Ikkinchidan, mazkur sohada imperativ va dispozitiv usullarning uyg‘unligi kuzatiladi. Uchinchidan, transportga oid qonunlar va qonunosti hujjatlar o‘zaro bog‘liq va yagona siyosat doirasida rivojlanmoqda.

Yagona transport tizimining shakllanishi iqtisodiy integratsiya, xalqaro tranzit salohiyati va raqamlashtirish jarayonlari bilan ham uzviy bog‘liq. Bu esa, transport huquqining faqat fuqarolik yoki ma‘muriy huquq doirasida emas, balki kompleks, mustaqil ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida rivojlanishini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yagona transport tizimining institutsional va infratuzilmaviy jihatdan shakllanishi

³ Law of the Republic of Uzbekistan dated August 29, 1998 No. 674-I “On Automobile Transport.” Available at: <https://lex.uz/acts/22964> (accessed: 14 February 2026).

⁴ Law of the Republic of Uzbekistan dated August 9, 2021 No. O‘RQ-706 “On Transport.” Available at: <https://lex.uz/docs/5563039> (accessed: 14 February 2026).

⁵ Law of the Republic of Uzbekistan dated January 19, 2024 No. O‘RQ-900 “On Road Traffic.” Available at: <https://lex.uz/docs/6764454> (accessed: 14 February 2026).

⁶ Law of the Republic of Uzbekistan dated November 27, 2024 No. O‘RQ-1006 “On Railway Transport.” Available at: <https://lex.uz/uz/docs/7239390> (accessed: 14 February 2026).



hamda transport qonunchiligining tizimli ravishda takomillashuvi transport huquqining mustaqil huquqiy tarmoq sifatida vujudga kelishi uchun zarur ilmiy va amaliy zamin yaratmoqda. Bu jarayon huquqiy tizimda yangi kompleks tarmoqning shakllanishini objektiv qonuniyat sifatida namoyon etmoqda.

Yuqaridagi tahlillarga asoslanib, transport huquqi — deganda transport sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, davlat majburlovi va shartnomaviy usullarni uyg'unlashtirgan mustaqil huquq tarmog'i tushuniladi. U xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.